UMUMTA’LIM MAKTAB O’QITUVCHILARINING DEFORMATSIYALANISH JARAYONIDAGI O’ZGARISHLAR

Bahromov A.,GDPI 2-kurs magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada umumta’lim maktab o’qituvchilarining kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan deformatsiyalanish jarayoni va bu jarayonda kuzatiladigan psixologik, ijtimoiy va axloqiy o’zgarishlar tahlil qilingan. O’qituvchilik kasbining o’ziga xos stress omillari, ta’lim tizimidagi o’zgarishlar, ish sharoitlari, ijtimoiy maqom va shaxsiy barqarorlikka bo’lgan bosim deformatsiyaning asosiy sababchilari sifatida ko’rsatilgan. Shuningdek, deformatsiya jarayonining oldini olish va o’qituvchilarda kasbiy motivatsiyani saqlab qolish yo’llari ham ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: kasbiy deformatsiya, o’qituvchi shaxsi, stress, professional charchoq, motivatsiya, psixologik barqarorlik, ta’lim tizimi, ijtimoiy o’zgarishlar

Аннотация: В статье анализируется процесс деформации, происходящий в профессиональной деятельности учителей средней школы, и наблюдаемые в этом процессе психологические, социальные и нравственные изменения. В качестве основных причин деформации называются стрессовые факторы, присущие профессии учителя, изменения в системе образования, условиях труда, социальном статусе и давление на личную стабильность. Также были рассмотрены пути профилактики деформационного процесса и поддержания профессиональной мотивации у педагогов.

Ключевые слова: профессиональная деформация, личность учителя, стресс, профессиональная усталость, мотивация, психологическая устойчивость, система образования, социальные изменения.

Abstract: this article analyzes the process of deformation that occurs during the professional activity of secondary school teachers and the psychological, social and moral changes observed in this process. The main causes of deformation are identified as stress factors specific to the teaching profession, changes in the education system, working conditions, social status and pressure on personal stability. Also, ways to prevent the deformation process and maintain professional motivation in teachers are considered.

Key words: professional deformation, teacher personality, stress, professional fatigue, motivation, psychological stability, education system, social changes

Kasbiy deformatsiya - bu kasbiy faoliyat ta’sirida insonning kasbiy rivojlanishini o’zgartirish jarayoni, buning natijasida xodim ichki va tashqi omillar ta’siri ostida uning faoliyati samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan salbiy shaxsiy g‘ayritabiy o’sishni rivojlantiradi. Shaxsning kasbiy rivojlanishi jarayoni, dastlab kasbiylashtirishning birinchi bosqichida, deformatsiyalar bilan birga bo’lishi mumkin. Tadqiqotlar doirasida umumta’lim tashkiloti xodimlari misolida o’qituvchining kasbiy deformatsiyasining tavsifi, o’qituvchini kasbiy faoliyatga kirish, o’rganish va kasbiy faoliyatdagi salbiy ta’sirlarning topishning ikki tomonlama qarama-qarshi jarayoni ekanligi ko’rsatilgan.Professionallash o’zining salbiy va ijobiy oqibatlari bilan tavsiflanadi. Maktab o’qituvchilarining kasbiy deformatsiyasini baholash mezonlari sifatida quyidagilar ko’rib chiqiladi: ongli kasbiy motivatsiyaning barqarorligi, o’qituvchining ishidan qoniqish, o’z kasbiy faoliyati bilan shug‘ullanish istagi, o’z-o’zini rivojlantirish istagini anglash, yuqori professional natijalarga erishish istagi, professional deformatsiyalarning oldini olish bilan shug‘ullanish zarurligini tushunish, o’z- o’zini tartibga solish ko’nikmalariga ega bo’lish, hissiy charchash belgilarining yo’qligi, avtoritarizmningyo’qligi, qat’iylik, xulq-atvorda tanqidiy emaslik kasbiy deformatsiyani shakllantirishning asosiy sharti sifatida belgilanishi nazarda tutilgan.

Mehnatga moslashish (ko’nikish) − bu pedagogning yangi mehnat vaziyatini o’zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo’lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta’sir ko’rsatadi va moslashuvchi-moslashtiruvchi tizimlar hisoblanadi.

Pedagog ta’lim muassasasiga ishga kirar ekan, muayyan mehnat tashkilotining kasbiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimiga faol kirishib ketadi, o’zi uchun yangi bo’lgan ijtimoiy vazifalarni, qadriyatlar va normalarni o’zlashtirib oladi, o’zining alohida tutgan yo’lini faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari bilan moslashtiradi, bu bilan o’zining xulqini mazkur ta’lim dargohi yoki muassasaning xizmat yol-yo’riqlariga bo’ysundiradi.

Biroq xodim ishga kirishda avvaldan qaror topgan muayyan maqsadlar, qadriyatli muomala yo’nalishiga ega bo’ladi, shularga muvofiq ta’lim muassasasiga bo’lgan oz talablarini shakllantiradi, ta’lim mussasasi esa o’z maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, xodimga, uning xulq-atvoriga o’z talablarini qo’yadi. Xodim va muassasa o’z talablarini amalga oshira borib, o’zaro bir-birlariga ta’sir ko’rsatadilar, bir-birlariga moslashadilar, buning natijasida mehnatga moslashuv jarayoni amalga oshiriladi. Shunday qilib, mehnatga moslashuv − shaxs va uning

uchun yangi bo’lgan ijtimoiy muhit o’rtasidagi ikki tomonlama jarayonni ifodalaydi.

Tadqiqot mavzuyimiz yuzasidan muammoni nazariy tahlil qilish, maktab o’quv jarayonidagi vaziyatni o’rganish uni maqsad sifatida ko’rib chiqish zaruriyatini va imkoniyatini asoslashimizga imkon berdi - o’qituvchilarning kasbiy deformatsiyasini oldini olish, uning mazmunini ochib berishni maqsad qildik.

Ushbu muommoning yechimi bizning taxminimizga binoan biz ilgari surgan maqsadlarni sinovdan o’tkazishi va boyitishi va shu bilan pedagogik jarayonda kasbiy deformatsiyaning samarali oldini olishga hissa qo’shishi kerak bo’lgan tadqiqot ishlarni tashkil etish zarurligini ko’rsatdi.Tadqiqot mavzuimizni o’rganishga kirishar ekanmiz bu mavzu oldimizga quyidagi vazifalarni qo’ydi:

- umumta’lim maktablari o’qituvchilarining kasbiy deformatsiyalari diagnostika qilish;
- o’qituvchilarning kasbiy deformatsiyasini oldini olish bo’yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va uni o’qituvchining kundalik faoliyatiga olib kirish;
- umumta’lim maktab o’qituvchisining kasbiy deformatsiyasini oldini olish bo’yicha samaradorlikni oshirish uchun takroriy diagnostika qilish va psixologik-pedagogik shartlarni asoslab berish;

Pedagogikada kasbiy mahoratni oshirish muommosi doimiy ravishda pedagogika fani va amaliyotining diqqat markazida bo’lib kelmoqda. O’qituvchilarning ta’lim muassasalaridan ommaviy ravishda chiqib ketishga intilishi, kasbiy kompitensiyalarning yetishmasligi bizni ushbu mavzuni tadqiq etishga o’qituvchining kasbiy deformatsiyasini bartaraf etish muommosini ko’proq o’rganishga majbur qildi. Buning uchun avvalo o’qituvchidagi kasbiy shakllanish va kasbiy rivojlanish masalalarini umumta’lim maktabi o’qituvchilari faoliyati jarayonida o’rganish lozimligini ko’rsatdi. Umumta’lim maktablarida olib borayotgan tadqiqotimiz doirasida pedagogning kasbiy deformatsiyasi pedagogning kasbiy faoliyatga kirishi va shu faoliyatni davom ettirishning qarama-qatshi ikki tomonlama jarayon ekanligini ko’rishimiz mumkinligini ko’rsatdi.Bu kasbiylashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari bilan tavsiflanadi.

Pedagogik tafakkurni rivojlantirish uchun o’qituvchi shaxsi juda katta kuch sarflaydi. Buning uchun pedagogda kasbiy shakllanishning barcha mezonlari shakllangan bo’lishi kerak. Kasbiy shakllanish mezonlarini yuqoridagi jadvalda keltirildi.

Shu sababli ular qiyinchiliklarga duch keladilar bu esa vaqt o’tishi bilan ularning sog‘ligiga zarar yetkazadi.

Hozirda o’qituvchi shaxsining kasbiy deformatsiyasi deganda sog‘lom o’qituvchilarda kasbiy muloqotning hissiy tarang muhitda yuzaga keladigan holatini tushunish kerak.Bu esa o’z navbatida hissiy, kognitiv, xulq-atvor va psixofizik belgilar to’plami bilan tavsiflanadi.

Psixologiya tarixidan ma’lumki, kasbiy deformatsiya masalasi o’tgan asrning 20-30-yillaridanoq o’rganila boshlangan. Bu borada kasbiy intilish, mehnat ishonchliligini ta’minlash, mehnat qobiliyatini oshirish muammolari, shuningdek, kasbiy faoliyatdagi noqulay sharoit bilan bog‘liq vaziyatlar tadqiq etilgan ilmiy izlanishlarni ko’rish mumkin. Ammo shaxsning professional deformatsiyasi masalalariga birmuncha kam e’tibor qaratilgan. Holbuki 1930 yillarda psixotexnik

S.G.Gellershteynning yozishicha, kasbiy faoliyatning mazmuni xodimlarning u yoki bu vazifani bajarishlari bilan emas, balki organizmni kasbning ma’lum jihatlariga moslashishi bilan bog‘liq[22]dir. Pedagog xodim organizmi va tashqi ta’sirlar o’rtasida to’xtovsiz o’zaro ta’sirlashuv sodir bo’ladi. Shu tufayli xodimning faqat tanasida emas, balki psixikasida ham deformatsiya kuzatiladi. Deformatsiya tushunchasi, odatda, organizmga ta’sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o’zgarish sifatida talqin qilinadi.

Ko’pgina tadqiqotchilar “Inson-inson” tipidagi kasblarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo’lishi va shakllanishini ta’kidlaydilar. Shunday qilib, mehnatga moslashuv − pedagog va uning uchun yangi bo’lgan ijtimoiy muhit o’rtasidagi ikki tomonlama jarayondir.

O’qituvchilik kasbi ommaviyligi va ijtimoiy ahamiyatga egaligi bilan boshqa kasblardan ajralib turadi. Bu esa o’qituvchilardan chuqur bilimni, kreativ tafakkurni, ta’limga innovatsion yondashuvni, xorijiy tajribaga ega bo’lishni yuksak intellektual salohiyatni talab qiladi. Natijada, pedagogik faoliyatda kasbiy deformatsiyalarning paydo bolish ehtimolini orttirmoqda.Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’quvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari bilan doimiy aloqada bo’ladi, bu esa o’qituvchidan axloqiy javobgarlikni talab qiladi.

Natijada pedagogik faoliyatda kasbiy ta’lim xizmatlariga, chuqur bilimli, malakali zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan xabardor pedagoglarga ijtimoiy talab kundan- kunga ortib bormoqda.

Kasbiy shakllanish - bu kasbiy faoliyat ta’siri ostida shaxsning kasbiy rivojlanishini o’zgartirish jarayoni bo’lib, natijada, ishchi shaxsida turli xil ichki va tashqi omillar ta’sirida mehnat samaradorligiga yomon ta’sir ko’rsatadigan yangi salbiy xususiyatlar paydo bo’ladi. Shaxsning kasbiy shakllanishi jarayonining birinchi bosqichida allaqachon deformatsiyalar bo’lishi mumkin.Ushbu jarayonda umumta’lim muassasasi pedagog xodimlari misolida olib borilgan tadqiqotlar doirasida pedagoglarning kasbiy shakllanishi - bu pedagogning kasbiy faoliyatga kirishi va qolishining qarama-qarshi ikki tomonlama jarayonini tahlil qilish bo’lib, kasbiylashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari bilan tavsiflanadi. Umumta’lim muassasasi pedagoglarining quyidagi mezonlarini ko’rib chiqish va zarurati kuzatildi.

Kasbiy shakllanishning mazmuni ongli kasbiy motivatsiyaning barqarorligini, maktab o’qituvchisining ishidan qoniqishini, kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish istagini mavjudligini, o’z-o’zini rivojlantirish istagi, mukammal kasbiy natijalarga erishish istagi bilan tavsiflanadi.

Kasbiy deformatsiyalarning oldini olish zarurligini tushunish: o’z-o’zini tartibga solish ko’nikmalariga ega bo’lish, hissiy yonish belgilarining yo’qligi, avtoritar xususiyatlarning yo’qligi, qattiqlik va tanqidsizlik kasbiy deformatsiyaning asosiy sharti sifatida o’rganishni taqazo etadi.

Bundan kelib chiqib, shuni a’lohida ta’kidlash lozimki, pedagogika sohasini o’zining kasbi deb tanlagan har bir yosh mutaxassis o’z faoliyatida deformatsiyalarning paydo bo’lish e’htimollari va uni keltirib chiqaruvchi omillar haqida tushunchaga ega bo’lishlari lozim. Shundagina u faoliyati davomida deformatsiyaning salbiy oqibatlari bilan to’qnash kelmaydi.

Bugungi ilm-fan jadal rivojlanayotgan davrda o’qituvchilarning zimmasida

yuklatilayotgan mas’uliyatning qanchalar ahamiyatli ekanligini hisobga olgan holda, o’qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonidayoq psixologik sinovdan o’tkazish, o’qituvchilikka layoqatliligi aniqlangandan so’ng ishga qabul qilinish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А.Х. Педагогическая деформация личности учителя. — Ташкент: Fan va texnologiya, 2019.
2. Юлдошев А. O’qituvchining kasbiy shakllanishi va psixologik salomatligi. — Toshkent: O’qituvchi, 2021.
3. Maslow A. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1970.
4. Freudenberger H.J. Burnout: The High Cost of High Achievement. — Garden City: Doubleday, 1974.
5. Karimova Z.S. Kasbiy faoliyatda stress va uning oqibatlari. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
6. Nazarova D.I. O’qituvchining kasbiy salohiyatini rivojlantirish yo’llari. — Toshkent: Innovatsiya, 2022.
7. World Health Organization. Occupational Burnout: An Increasingly Common Phenomenon. — WHO Report, 2020